

OGAHIIY POETIKASIDA KITOBAT VA ISTIXROJ HARF SAN'ATLARINING QO'LLANILISHI

Iroda Raximova

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti, O'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiy ijodiyotida kitobat va istixroj harfiy san'atlarining qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shoir she'riyati misolida ushbu murakkab harfiy-badiiy san'atlarning mumtoz adabiyotdagi o'rni masalasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, harfiy san'at, kitobat, istixroj, poetik shakl, poetik mazmun.

KIRISH. Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida badiiy san'atlar muhim o'rin tutadi. Mumtoz shoirlarimiz asarlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar majmui adabiyotshunosligimizda muayyan darajada tahlil etilgan va ularning xalq ma'naviy hamda estetik tafakkurining boyitishdagi ahamiyati katta ekanligini barchamiz bilamiz. O'zbek mumtoz adabiyoti nafaqat g'oyaviy-falsafiy mazmuni, balki badiiy san'atning har xil vositalari orqali ifodalangan estetik boyligi bilan ham ajralib turadi. Shu jumladan, muammo, kitobat, istixroj kabi harfiy san'atlar adabiyotda muayyan shakliy, mantiqiy va intellektual murakkabligi bilan alohida qiymatga ega. Ushbu san'at turlari orqali shoirlar nafaqat o'z salohiyatini namoyon qilgan, balki o'quvchining tafakkurini boyitish hamda o'ziga xos zavq uyg'otishga, ifodalayotgan fikrlarning ta'sir kuchini oshirishga erishganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbek mumtoz adabiyoti boy tarixi davomida davr she'riyatida murakkab sanalgan istixroj va kitobat san'atlarini Hazrat Navoiy, Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy va ko'plab boshqa ijodkorlar o'z asarlarida mahorat bilan qo'llashgan.

Hazrat Navoiy va Bobur kabi ustoz salafining munosib davomchisi bo'lgan Ogahiy ijodida ham ushbu san'atlar o'rinli va oqilona qo'llanilgan. Ogahiy she'riyatining gultoji bo'lgan “Ustina” radifli g'azalining birinchi baytidayoq kitobat va istixroj san'atlari asosiga qurilgan original poetik shakl va mazmun ifodalanganining guvohi bo'lamiz:

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun “na's” keltirur nun eltibon sod ustina.

Baytda keltirilgan “nun” va “sod” harflari kitobat san'atini hamda ushbu harflar birligidan yasalgan “na's” (arabcha, “hukm”) so'zi orqali istixroj san'atining go'zal namunasi yaratilgan. Bayt tavsifiga ko'ra, ma'shuqaning qora (mushkin) qoshlari jallod ko'zi ustida shunday hay'at qurganki, go'yoki oshiq qatli uchun “na's”, ya'ni hukm qilyapti... Ikkinchi misradagi “na's” so'zi “nun” va “sod” harflarini qo'shib yozishdan hosil bo'lib, istixroj san'atini hosil qilyapti, misradagi so'zlarga sinchiklab qaralsa, “sod” harfining ustiga “nun” harfini teskari qilib joylashtirish orqali inson a'zosi bo'lgan “ko'z” hosil bo'ladi. Bu yerda shoir kitobxonni ma'shuqaga boqqan oshiqning qatliga hukm

qilayotgan jallod ko'zlariga diqqat qaratishni maqsad qilgan va bu orqali ijodkorning nafaqat poetik shakl va mazmun uyg'unligiga erishganligini, balki badiiy san'atlarni qo'llashdagi o'zigagina xos bo'lgan original she'riy mahoratini ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, Ogahiy kitobat va istixroj badiiy san'atlaridan murabba', musaddas va boshqa ko'plab g'azallarida yuksak shoirona mahorat bilan qo'llaganki, bu nafaqat Ogahiyning murakkab san'atlardan chuqur xabardor ekanligini, balki yuksak iste'dod va teran tafakkur sohibi ekanligini hamda Navoiy, Bobur kabi ustoz salaflarning munosib davomchisi, shuningdek, ushbu an'analarning o'ziga xos yangilovchisi ekanligidan ham darak beradi.

Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonidagi birinchi o’rindan joy olgan “Nigirim, mehribonim, makramat taxtida sultonim” misralari har baytda takrorlanib keluvchi, “Jamoling shavqida yoqti falakni o’tlug’ afg’onim misrasi bilan boshlanuvchi murabba’sining ikkinchi bandida ham kitobat harf san’atidan ustalik bilan foydalanilgan. Shoir shunday yozadi:

O’tubdur iltifoting orzusi birla oyu yil,
Ko’zim giryon, tanim larzon, ko’ngul nolonu alkan til,
Boqib aynu karamdin ushbu holimga tarahhum qil,
Nigirim, mehribonim, makramat taxtida sultonim [1:412].

Ushbu bandning uchinchi misrasida ko’z an’anaviy tarzda “ayn” deya atalib, kitobat san’atini yuzaga keltirmoqda. Ma’lumki, ko’z arab alifbosidagi “ayn” yoki “sod”, ba’zan qoshu ko’z “nun”ga (Ogahiy ijodidan ma’lum) qiyoslanadi. Bu murabba’da ham oshiq ma’shuqasiga “Ko’zing birla boqib ushbu holimga rahm qilgin”, deya nola qilmoqda...

Shuningdek, Ogahiyning bir qator g'azallarida ham kitobat san'atidan o'ziga xos shoirona mahorat bilan qo'llanilgan. Shoir devonidan o'n birinchi raqam ostidan joy olgan “Ul oy boshida tobon gavharmu ekan oyo” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning sakkizinchi baytida kitobat san'atidan foydalanilganligini ko'rish mumkin:

Dog’ uzra *alif*durmu ko’ksim uza chekmish hajr,
Yo dard sipehrida mehvarmu ekan oyo [1:32].

Ushbu baytda oshiq mahbubning qaddini “alif”ga qiyoslaydi va dildorning qaddini alif harfidek tik ekanligini ta’riflaydi, bu orqali kitobat harf san’ati yuzaga kelgan.

Ogahiy devonida 21-o’rinda joylashgan “Ostida” radifli g’azalining dastlabki ikki baytida ham kitobat va istixroj san’atlarining go’zal namunalarini ko’rish mumkin:

La’li shirinimu yer tutg’on qaro xol ostida
Yo qo’yulmish nuqta aylarda raqam bol ostida [1:39]?

Ushbu baytda yorning lablari ostidagi xol “bol” (ب ا ل) so’zidagi “ba” harfining ostiga qo’yilgan nuqtaga ishora qilingan, shuningdek, bu orqali istixroj san’atining oddiy turi ham ifodalangan.

G’azalning ikkinchi baytida esa kitobat san’atidan shoirona mahorat bilan qo’llanilganining guvohi bo’lish mumkin:

Tushtimu qotil ko’zi ostig’a zulfining xami?
Yo ko’rinmishdur hamul jallodning dol ostida [1:39]?

20-Iyun, 2025-yil

Tavsifi: Ma’shuqa qotil ko‘zining ostiga zulfi (kokili) egilib tushdimi yoki jallod ko‘zi “dol”dek zulfnining ostidan ko‘rinyaptimi...”

Mumtoz adabiyotdan ma’lumki, yor zulfi “dol” harfiga qiyoslanadi, ya’ni bu yerda zulfnining “dol” harfidek egik, qayrilgan ekanligi inobatga olingan. Bu baytda ham mavlono Ogahiy ushbu o‘xshatishdan kitobat san’ati orqali poetik shakl va mazmunan hamohang tarzda foydalana olgan, natijada mana shunday umrboqiy misralar bunyod bo‘lgan.

Shoir devonidan 44-o‘rindan joy olgan “Ey vujudingg‘a kelib vobasta imkoni vujud” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalning yettinchi baytida esa ma’shuqa ko‘zi an’anaviy “ayn” harfiga qiyoslanadi:

Ayni avfingdin yetushmay nur hargiz yorumas,

Gar tulu’ etsa shabi torimg‘a ming mohu shuhud [1:54].

Tavsifi: “Ko‘zingning avfidan (visolidan ma’nosida) nur yetmasa qorong‘u kechamni oy hargiz yorita olmas”, deya oshiq nola qilmoqda...

XULOSA. Demak, Ogahiy hazratlari o‘z ijodida murakkab harfiy san’atlardan hisoblangan – kitobat va istixroj san’atlaridan unumli foydalangan va bu orqali ustoz salaflar an’alarini munosib davom ettira olgan, mumtoz she’riyatda o‘z o‘rniga ega hassos so‘z sohibidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин: Девон. – Тошкент: “Адабиёт” н., 2023. – 688 б.
2. Асаллаев А. Ва бошқалар. Бадий санъат жозибаси. Тошкент: Янги аср авлоди. 2005.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 193 б.
4. Орзибеков Р. Шеър санъатлар таҳлили. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2000. – 168 б.
5. Rahmonov V. She’r san’atlari. – Toshkent: “Sharq”, 2020. – 240 b.
6. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. – 128 b.